

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI DAVLAT SIYOSATI VA  
BOSHQARUVI AKADEMIYASI**

**“TASDIQLAYMAN”**

**Ilmiy ishlar va xalqaro**

**aloqalar bo‘yicha prorektor**

**R. Shirinova**

**2026-yil**



**08.00.19 – “Davlat boshqaruvining iqtisodiy asoslari” ixtisosligi bo‘yicha O‘zbekiston  
Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasida oliy  
ta’limdan keyingi ta’lim institutiga kirish imtihoni**

**DASTURI**

**TOSHKENT – 2026**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi ilmiy uslubiy kengashining 2025-yil 27-oktyabrdagi 2 sonli majlis bayonnomasi bilan ma’qullangan.

**Tuzuvchilar:**

Pardayev U.U

i.f.d., dotsent

**Taqrizchilar:**

Toshmatov Sh.A

i.f.d., professor

Islamkulov A.X.

i.f.d., professor

## KIRISH

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi mutaxassislarining malakaviy darajasini ko‘tarish va xalqaro andozalarga mos keluvchi kadrlarning yangi avlodini shakllantirishni talab etadi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda ta‘lim tizimining barcha turlarini, jumladan, oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish bo‘yicha aniq maqsadli keng miqyosdagi ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4958-son Farmoniga muvofiq mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda erishilgan sur‘atlar ilmiy kadrlar tayyorlash jarayonini tobora jadal rivojlantirish va sifatini oshirish, iqtidorli yoshlarni ilm-fanga keng jalb qilish, oliy ta‘lim va ilmiy muassasalarning ilmiy salohiyatini mustahkamlash zarurligini taqozo etmoqda.

Mazkur dastur 08.00.19 – “Davlat boshqaruvining iqtisodiy asoslari” ixtisosligi bo‘yicha tuzilgan bo‘lib, davlat boshqaruvining nazariy-metodologik asoslari, davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli, davlat iqtisodiy siyosatini shakllantirish mexanizmlari, strategik qarorlar qabul qilish, byudjet-moliyaviy siyosat, davlat-xususiy sheriklik va iqtisodiy xavfsizlik masalalarini qamrab olgan tegishli fan tarmog‘i bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun talabga muvofiq ixtisoslik bo‘yicha malakaviy imtihon topshiruvchi nomzodlarning ushbu fanlardan nazariy va amaliy bilimlarini atroflicha baholash maqsadida tuzilgan.

### I. DAVLAT BOSHQARUVINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI VA IQTISODIY SIYOSATNI SHAKLLANTIRISH

Davlat boshqaruvining iqtisodiy mohiyati, obyektiv zarurligi va tarixiy evolyutsiyasi: davlatning bozor iqtisodiyotidagi o‘rni bo‘yicha klassik nazariyalar (A.Smit, D.Rikardo, Dj.M.Keyns, F.Xayek), davlat aralashuvi doirasi va chegaralari to‘g‘risidagi ilmiy bahslar. Davlat boshqaruvining asosiy funksiyalari: makroiqtisodiy barqarorlik, resurslarni samarali taqsimlash, daromadlarni qayta taqsimlash, bozor nostandart holatlar (market failures)ni bartaraf etish, ijtimoiy adolatni ta‘minlash, iqtisodiy xavfsizlikni kafolatlash. Davlat institutlarining iqtisodiy rolini o‘rganishda institutsional iqtisodiyot maktabi yondashuvlari: mulk huquqlari, shartnoma ijrosi, tranzaksiya xarajatlari, rasmiy va norasmiy institutlar ta‘siri.

Davlat iqtisodiy siyosatini shakllantirish mexanizmlari va vositalari: makroiqtisodiy siyosat turlari (fiskal, monetar, tijorat, investitsiya, sanoat), ularning maqsadlari va o‘zaro ta‘siri. Strategik rejalashtirish va davlat dasturlarini ishlab chiqish metodologiyasi: milliy rivojlanish strategiyalari tuzilmasi, ustuvor yo‘nalishlarni belgilash mezonlari, ko‘p darajali rejalashtirish (uzoq, o‘rta va qisqa muddatli), ssenariy yondashuvi. Davlat iqtisodiy siyosatining asosiy yo‘nalishlari zamonaviy sharoitda: iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini ta‘minlash, raqobatbardoshlikni oshirish, innovatsion rivojlanishni rag‘batlantirish, mintaqaviy tengsizliklarni kamaytirish, tashqi iqtisodiy faoliyatni liberallashtirish.

Davlat manfaatlari konsepsiyasi va iqtisodiy qarorlar qabul qilish jarayoni: milliy manfaatlarni aniqlash metodologiyasi, qisqa va uzoq muddatli manfaatlarni muvofiqlashtirish, turli manfaatdor tomonlar (davlat, biznes, jamoat) balansini ta‘minlash mexanizmlari. Davlat iqtisodiy qarorlarini qabul qilishda tahlil vositalari: xarajat-samara tahlili (cost-benefit analysis), xarajat-natijadorlik bahosi (cost-effectiveness), ko‘p mezonli baholash, matematik modellashtirish, ekonometrik usullar. Qarorlar qabul qilishning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini baholash: to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita ta‘sirlar, multiplikativ effektlar, taqsimlash oqibatlari, uzoq muddatli risklar va imkoniyatlar.

Davlat iqtisodiy siyosatini amalga oshirish institutsional tizimi: vazirliklar va idoralar tizimi, ularning vakolatlari va mas‘uliyati, faoliyat muvofiqlashtirish mexanizmlari. Davlat boshqaruvida ochiqlik va hisobdorlik tamoyillari: ma‘lumotlarni oshkor etish standartlari, parlament nazorati, jamoatchilik monitoringi, fuqarolarning qarorlar qabul qilishda ishtiroki. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida davlat iqtisodiy siyosatining asosiy ustuvorliklari: makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, bozor institutlarini rivojlantirish, xususiy

tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, investitsiya jozibadorligini oshirish, hududlarni kompleks rivojlantirish, raqamli transformatsiyani jadallashtirish.

## **II. DAVLAT BYUDJET-MOLIYAVIY SIYOSATI VA FISKAL BOSHQARUV**

Byudjet siyosati nazariyasi va amaliyoti: byudjetning iqtisodiyotdagi roli, avtomatik stabilizatorlar mexanizmi, diskretion fiskal siyosat vositalari. Byudjet tizimining tuzilishi: davlat byudjeti, mahalliy byudjetlar, byudjetdan tashqari jamg‘armalar, ularning o‘zaro munosabatlari. Davlat daromadlarini shakllantirish manbalari: soliq tushumlari, soliqdan tashqari daromadlar, kapital operatsiyalari tushumlari, ularning prognozlashtirish metodologiyasi. Davlat xarajatlari tizimi va tasnifi: funksional, iqtisodiy va ma‘muriy tasniflar, xarajatlarning samaradorligini baholash mezonlari, “sarflangan mablag‘ga nisbatan samara” tamoyilini qo‘llash.

Natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish va dasturli byudjetlashtirish: maqsadlarni aniqlash, ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqish, natijalarni monitoring qilish va baholash mexanizmlari. O‘rta muddatli byudjet rejalashtirishi: prognoz davri, makroiqtisodiy asoslanish, xarajatlar limitlarini belgilash, byudjet ehtiyotlari shakllantirish. Byudjet defitsiti va profitsiti: mohiyati, turlari, iqtisodiyotga ta‘siri, defitsitni moliyalashtirish manbalari va usullari, maqbul defitsit darajasini aniqlash. Davlat qarzini boshqarish: ichki va tashqi qarz tuzilmasi, qarz barqarorligini tahlil qilish, qarz yukini baholash ko‘rsatkichlari, qarz risklarini boshqarish strategiyalari, qarzni qayta moliyalashtirish operatsiyalari.

Byudjetlararo munosabatlar va fiskal de-sentralizatsiya: markazlashgan va markazlashmagan pul fondlari, byudjet federalizmi tamoyillari, mahalliy byudjetlarning daromad manbalari, byudjetlararo transfertlar tizimi (maqsadli transfertlar, tenglashtiruvchi transfertlar), mahalliy moliyaviy mustaqillikni oshirish yo‘llari. Soliq siyosatining iqtisodiy ta‘siri: soliq yuki konsepsiyasi, Laffer egri chizig‘i, soliq bazasini kengaytirish yo‘llari, soliq imtiyozlari samaradorligini baholash, soliq xarajatlari hisoboti, soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish.

Byudjet jarayonini tashkil etish: byudjetni tuzish, muhokama qilish, tasdiqlash, ijro etish va yakuniy hisobotni tasdiqlash bosqichlari. G‘aznachilik tizimi: yagona g‘aznachilik hisobvaraqi, to‘lov intizomi, yuridik majburiyatlarni ro‘yxatga olish, xarajatlarni nazorat qilish. Byudjet nazorati va auditi: ichki audit tizimi, tashqi audit (Hisob palatasi roli), xavfga asoslangan nazorat yondashuvi. Byudjet ochiqligi va shaffofligi: “Fuqarolar uchun byudjet” konsepsiyasi, byudjet ma‘lumotlarini oshkor qilish standartlari, parlament va jamoatchilik nazorati mexanizmlari, xalqaro byudjet shaffofligi indeksi.

## **III. INVESTITSIYA SIYOSATI VA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK**

Davlat investitsiya siyosatining maqsadlari va vazifalari: iqtisodiy o‘rta muddatli ta‘minlash, infratuzilmani modernizatsiya qilish, texnologik yangilanish, mintaqaviy rivojlanish, ish o‘rinlari yaratish. Davlat investitsiyalari turlari: to‘g‘ridan-to‘g‘ri davlat investitsiyalari (byudjet investitsiyalari), davlat kafolatlari ostidagi investitsiyalar, davlat-xususiy sheriklik loyihalari, davlat ishtirokidagi korxonalar investitsiyalari. Investitsiya loyihalarini tanlash va baholash metodologiyasi: investitsiya loyihalarini tayorlash standartlari, texnik-iqtisodiy asoslash, xarajat-samara tahlili, moliyaviy va iqtisodiy rentabellik, ijtimoiy ta‘sirni baholash, risklarni aniqlash va boshqarish.

Davlat investitsiya dasturini shakllantirish jarayoni: ustuvor loyihalarni aniqlash mezonlari, tarmoqlar va hududlar bo‘yicha investitsiyalarni taqsimlash, byudjet cheklovlari sharoitida loyihalar portfelini optimallashtirish. Investitsiya loyihalarini amalga oshirish monitoringi: loyiha boshqaruv tizimi, jismoniy va moliyaviy ijroni kuzatish, muddatlarga rioya qilishni nazorat qilish, muammolarni aniqlash va hal qilish mexanizmlari. Investitsiya natijadorligini baholash: rejalashtirilgan ko‘rsatkichlarga erishish darajasi, investitsiyalardan qaytish muddati, ijtimoiy-iqtisodiy samara, multiplikativ effektlar.

Davlat-xususiy sheriklikning (DXSH) nazariy asoslari: mohiyati, tamoyillari, afzalliklari va cheklovlari, xalqaro tajriba (konsessiya, qurilish-foydalanish-topshirish, qurilish-egalik-foydalanish modeli). O‘zbekistonda davlat-xususiy sheriklik institutsional tizimi: huquqiy baza,

vakolatli organlar, loyihalarni aniqlash va tanlash jarayoni, shartnoma tuzish tartibi. DXSH loyihalarini moliyaviy modellashtirish: investitsiya hajmini aniqlash, moliyalashtirish manbalari, risklarni taqsimlash, davlat qo'llab-quvvatlash shakllari (subsidiyalar, kafolatlar, soliq imtiyozlari), tariflarni belgilash mexanizmlari. DXSHning samaradorlik mezonlari: xususiy sektor uchun moliyaviy rentabellik, davlat uchun fiskal samara, ijtimoiy samara (aholi uchun xizmatlar sifati va qulayligi), qiymat bo'yicha foyda (value for money) konsepsiyasi.

Investitsiya muhitini yaxshilash bo'yicha davlat siyosati: investitsiya qonunchiligini takomillashtirish, investorlar huquqlarini himoya qilish mexanizmlari, ruxsatnoma tartib-taomillarini soddalashtirish, investitsiya kafolatlari tizimi, nizolarni hal qilish alternativ usullari. Investitsiya rag'batlantirish vositalari: soliq imtiyozlari, bojxona preferensiyalari, maxsus iqtisodiy hududlar, "bir darcha" xizmati, davlat kafolatlari. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish siyosati: to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning ahamiyati, ular oqimini boshqarish, investitsiya imijini yaxshilash, investitsiya loyihalarini ilgari surish, xalqaro investorlar bilan hamkorlik.

#### **IV. TARMOQLARNI BOSHQARISH, IJTIMOY SIYOSAT VA DAVLAT XARAJATLARI**

Davlatning strategik va ijtimoiy ahamiyatga molik tarmoqlarni boshqarish siyosati: tarmoqlarni davlat boshqaruvi qoldirish mezonlari, tabiiy monopoliyalar konsepsiyasi, tarmoq siyosatini shakllantirish (energetika, transport, aloqa, resurs ta'minoti). Tarmoqlarni tartibga solish vositalari: litsenziyalash, tariflarni belgilash, xizmatlar sifatini standartlashtirish, raqobatni rivojlantirish, monopoliya faoliyatini nazorat qilish. Infratuzilma sohasida davlat ishtirokining iqtisodiy asoslari: transport, energetika, suv ta'minoti, aloqa infratuzilmasi, ularning iqtisodiy rivojlanishdagi roli, infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish usullari.

Davlat ishtirokidagi korxonalarini boshqarish: korporativ boshqaruv tamoyillari, samaradorlikni baholash ko'rsatkichlari, moliyaviy nazorat, dividend siyosati, xususiylashtirish qarorlari. Ijtimoiy sohalarida davlat siyosatining iqtisodiy tahlili: ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoyalash tizimlari, ulardagi davlat xarajatlari samaradorligi. Ta'lim siyosati: davlat va xususiy ta'lim nisbati, ta'limni moliyalashtirish modeli, inson kapitaliga investitsiyalar, ta'lim sifatini baholash. Sog'liqni saqlash tizimini boshqarish: sog'liqni saqlashni moliyalashtirish usullari, davlat kafolatlari dasturi, tibbiy xizmatlarga narxlar siyosati, salomatlik kapitaliga investitsiyalar, sug'urta tibbiyot elementlari.

Ijtimoiy himoya tizimi va daromadlarni qayta taqsimlash siyosati: kambag'allikka qarshi dasturlar, ijtimoiy nafaqalar, ijtimoiy yo'llangmalar (maqsadli yordam), nafaqa ta'minoti, nog'ironlar ijtimoiy himoyasi. Ijtimoiy yordamni maqsadli qilish: qo'llab-quvvatlash uchun manfaatdorlarni aniqlash, elektron ijtimoiy reestr, yordamni ko'rsatish samaradorligini baholash. Mehnat bozori siyosati: bandlikni qo'llab-quvvatlash dasturlari, faol mehnat bozori siyosati choralari, kasb-hunar tayyorgarligi, ish izlayotganlarga ko'maklashish. Aholining daromad darajasi va turmush sifati: ish haqi siyosati, eng kam ish haqi belgilash, kambag'allik chizig'i, turmush darajasi ko'rsatkichlari, tengsizlikni o'lchash (Jini koeffitsiyenti).

Davlat xarajatlari samaradorligini oshirish: xarajatlarni qayta ko'rib chiqish (xarajatlar sharhi) amaliyoti, xarajatlarni optimallashtirish, subsidiyalar samaradorligini baholash, davlat xarid tizimini takomillashtirish. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muvozanatlilik: iqtisodiy o'sish va ijtimoiy tenglik dialektikasi, inklyuziv rivojlanish konsepsiyasi, barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida davlat siyosati. Mintaqaviy rivojlanish siyosati: hududlar o'rtasidagi tengsizliklarni kamaytirish, mintaqaviy dasturlar, maxsus iqtisodiy hududlar, klaster yondashuvi, hududlarni kompleks rivojlantirish.

#### **V. IQTISODIY XAVFSIZLIK, RAQAMLASHTIRISH VA ZAMONAVIY VAZIFALAR**

Milliy iqtisodiy xavfsizlik konsepsiyasi: mohiyati, tahdidlar va risklar, xavfsizlik ko'rsatkichlari tizimi, chegaraviy qiymatlar. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda davlatning

yetakchilik roli: makroiqtisodiy barqarorlik, moliyaviy xavfsizlik, energetika xavfsizligi, oziq-ovqat xavfsizligi, texnologik mustaqillik. Tashqi iqtisodiy xavfsizlik: savdo balansining muvozanatligi, valyuta zaxiralarining yetarliligi, tashqi qarz yuki, sanksiyalar va savdo cheklovlari risklarini boshqarish. Monopoliyaga qarshi siyosat: raqobat muhitini rivojlantirish, monopolistik amaliyotga qarshi nazorat, bozorga kirishdagi to‘siqlarni bartaraf etish, korxonalarni birlashtirish va qo‘shib olishlarni nazorat qilish.

Davlatning raqamli texnologiyalar sharoitida iqtisodiyotni boshqarishi: raqamli transformatsiya strategiyasi, elektron davlat xizmatlari, ochiq ma’lumotlar siyosati, davlat organlarida ma’lumotlar bilan ishlashni optimallashtirish. Sun’iy intellekt texnologiyalari va davlat boshqaruvi: tahlil va prognozlashtirishda sun’iy intellektdan foydalanish, avtomatlashtirilgan qarorlar qabul qilish tizimlari, risklarni aniqlash, xizmatlarni personallashtirish. Raqamli iqtisodiyot siyosati: raqamli infratuzilmani rivojlantirish, kiber-xavfsizlik, ma’lumotlarni himoya qilish, raqamli savodxonlikni oshirish, innovatsion tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, startap-ekotizimni rivojlantirish.

Davlat nazorati tizimi: nazorat turlari va shakllari, xavfga asoslangan nazorat yondashuvi, nazoratni optimallashtirish, biznesga zararsiz nazorat tamoyili, nazorat samaradorligini baholash. Korrupsiyaga qarshi kurashish: davlat qarorlarida shaffoflik va hisobdorlik, manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish, davlat xaridlarida ochiqlik, ichki nazorat tizimlari. Davlat boshqaruvida strategik tahlil va rejalashtirish: strategik tahlil usullari (SWOT, PESTEL, ssenariy tahlili), uzoq muddatli prognozlashtirish, strategik qarorlar qabul qilishda risklarni baholash, antiinqiroz boshqaruvi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda davlat roli: savdo siyosati, bojxona-tarif tartibga solishi, mintaqaviy integratsiya jarayonlarida ishtirok, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik, xalqaro kelishuvlarni amalga oshirish. Jahon amaliyotida davlat boshqaruvining iqtisodiy asoslari: davlat qatnashuvining turli modeli (anglosakson, yevropa, osiyo), eng yaxshi xalqaro tajriba, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi, O‘zbekiston uchun adaptatsiya imkoniyatlari. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi kontekstida davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish ustuvorliklari: institutlar sifatini oshirish, boshqaruv samaradorligini oshirish, davlat xizmatlari sifatini yaxshilash, fuqarolarga yo‘naltirilgan yondashuv, raqamli transformatsiya, xalqaro reytinglarda mavqeni mustahkamlash.

## **08.00.19 – “DAVLAT BOSHQARUVINING IQTISODIY ASOSLARI” IXTISOSLIGI BO‘YICHA NAMUNAVIY SAVOLLARI**

1. A. Smit, D. Rikardo, Dj. M. Keyns va F. Xayekning davlatning iqtisodiyotdagi roliga oid klassik qarashlarini taqqoslang.
2. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va resurslarni samarali taqsimlashda davlatning asosiy funksiyalari nimalardan iborat?
3. Davlat aralashuvi orqali “bozor muvaffaqiyatsizliklari”ni (market failures) bartaraf etish mexanizmlarini yoritib bering.
4. Institutsional iqtisodiy maktabning mulk huquqlari va tranzaksiya xarajatlarini o'rganishga oid yondashuvlarini ochib bering.
5. Davlat boshqaruvida makroiqtisodiy siyosatning asosiy turlari (fiskal, pul-kredit, sanoat siyosati va boshqalar) qaysilar?
6. Strategik rejalashtirish va davlat dasturlarini ishlab chiqish metodologiyasini bayon qiling.
7. Milliy rivojlanish strategiyalarida ustuvor yo'nalishlarni belgilash mezonlarini tavsiflang.
8. Ko'p bosqichli rejalashtirishda ssenariyli yondashuvning mohiyati nimada?
9. Iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash va innovatsiyalarni rag'batlantirishning zamonaviy ustuvor yo'nalishlarini tushuntiring.
10. Milliy manfaatlarni belgilash metodologiyasi va davlat, biznes hamda jamiyat o'rtasidagi muvozanat mohiyatini yoriting.
11. Davlat qarorlarini qabul qilishda qo'llaniladigan tahliliy instrumentlar (cost-benefit, cost-effectiveness)ni tavsiflang.
12. Davlat qarorlarining multiplikativ ta'sirlari va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini ochib bering.
13. Iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda institutsional tizim va idoralarning hisobdorlik tamoyillarini bayon qiling.
14. “O'zbekiston — 2030” strategiyasining bozor institutlarini rivojlantirishga oid asosiy ustuvor yo'nalishlarini tavsiflang.
15. Iqtisodiyotda avtomatik stabilizator sifatida byudjetning rolini ochib bering.
16. Diskretion va nodiskretion fiskal siyosat o'rtasidagi farqlarni tushuntiring.
17. Davlat va nodavlat (byudjetdan tashqari) jamg'armalarni o'z ichiga olgan byudjet tizimi tuzilmasini tavsiflang.
18. Byudjetning soliq va nosoliq daromadlarini prognozlash metodologiyasini yoriting.
19. Davlat xarajatlarining funksional va iqtisodiy tasnifini tahlil qiling.
20. Natijaviy byudjetlashtirish konsepsiyasi va samaradorlik ko'rsatkichlarini monitoring qilish mohiyatini ochib bering.
21. O'rta muddatli byudjet rejalashtirish va xarajat limitlarini belgilash jarayonini bayon qiling.
22. Byudjet taqchilligini moliyalashtirish usullari va ularning iqtisodiyotga ta'sirini tahlil qiling.
23. Davlat qarzini boshqarish strategiyasi va qarz barqarorligini baholash usullarini tushuntiring.
24. Byudjet federalizmi va fiskal detsentralizatsiya tamoyillarini yoritib bering.
25. Hududlarni qo'llab-quvvatlashda qo'llaniladigan byudjetlararo transfertlar turlarini (maqsadli, tenglashtiruvchi) tavsiflang.
26. Soliq yukining iqtisodiyotga ta'sirini Laffer egri chizig'i orqali tahlil qiling.
27. Byudjet jarayonining bosqichlarini — tuzishdan tortib ijro hisobotini tasdiqlashgacha — bayon qiling.

28. Xarajatlar nazorati va to'lov intizomini ta'minlashda G'aznachilikning rolini ochib bering.
29. Byudjet shaffofligini ta'minlash mexanizmlari va Hisob palatasining auditdagi rolini tavsiflang.
30. Infratuzilmani modernizatsiya qilishda davlat investitsiya siyosatining asosiy maqsadlarini ifodalang.
31. Davlat investitsiyalarining asosiy shakllarini (to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar, kafolatlar, kapitalda ishtirok) tavsiflang.
32. Texnik-iqtisodiy asos (TIA) tayyorlash standartlari va moliyaviy rentabellikni baholash usullarini yoriting.
33. Davlat investitsiya dasturi doirasida ustuvor loyihalarni tanlab olish jarayonini tushuntiring.
34. Investitsiya loyihalarining jismoniy va moliyaviy ijrosini monitoring qilish mexanizmlarini bayon qiling.
35. Investitsiyalarning ijtimoiy-iqtisodiy samarasini baholash mezonlarini ochib bering.
36. DXSHning nazariy asoslari va xalqaro modellarini (konsessiya, BOT, BOO) tavsiflang.
37. O'zbekistonda DXSHning institutsional tizimi va shartnomalarni tuzish jarayonini yoriting.
38. DXSH loyihalarida davlat va xususiy sherik o'rtasida risklarni taqsimlash usullarini tushuntiring.
39. DXSH loyihalarida "Value for Money" (narx va sifat nisbati) konsepsiyasining mohiyatini ochib bering.
40. Investitsiya muhitini yaxshilash va investorlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat chora-tadbirlarini tavsiflang.
41. Investitsiyalarni rag'batlantirishda maxsus iqtisodiy zonalarning rolini ochib bering.
42. Investorlar uchun "yagona darcha" tizimining ishlash mexanizmlarini bayon qiling.
43. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish siyosati va mamlakat imijini shakllantirish masalalarini yoriting.
44. Investitsiya nizolarini hal etishda qonunchilikda nazarda tutilgan alternativ mexanizmlarni tushuntiring.
45. Strategik tarmoqlarda davlat nazoratini saqlab qolish mezonlarini bayon qiling.
46. Tabiiy monopoliyalarni tartibga solish mexanizmlarini (tariflar, litsenziyalash) tavsiflang.
47. Infratuzilma tarmoqlarining (energetika, transport) iqtisodiy rivojlanishdagi rolini ochib bering.
48. Davlat ulushi mavjud korxonalarda korporativ boshqaruv tamoyillarini tushuntiring.
49. Ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida davlat xarajatlarining samaradorligini tahlil qiling.
50. Inson kapitalini moliyalashtirishda davlat va xususiy modellarni taqqoslang.
51. Sog'liqni saqlashda tibbiy sug'urta tizimi va davlat kafolatlarini yoriting.
52. Kambag'allikni qisqartirish va manzilli ijtimoiy himoya siyosati yo'nalishlarini ochib bering.
53. Manzilli yordamni ta'minlashda Elektron ijtimoiy reestrning rolini tushuntiring.
54. Bandlikni oshirishga qaratilgan mehnat bozorida faol davlat siyosati choralari tavsiflang.
55. Daromadlar tengsizligi (Jini koeffitsiyenti) qanday o'lchanadi va davlat qayta taqsimlashda qanday rol o'ynaydi?

56. Davlat xarajatlarining samaradorligini oshirishda xarajatlar sharhi (expenditure reviews) metodologiyasini yoriting.
57. Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida inklyuziv rivojlanish konsepsiyasini tushuntiring.
58. Hududiy rivojlanish siyosatida klaster yondashuvining mohiyatini ochib bering.
59. Hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosibliklarni bartaraf etish mexanizmlarini tavsiflang.
60. Milliy iqtisodiy xavfsizlik konsepsiyasi va uning ko'rsatkichlar tizimini bayon qiling.
61. Energetik va oziq-ovqat xavfsizligini baholashda qo'llaniladigan chegaraviy indikatorlarni tavsiflang.
62. Tashqi qarz xavflarini boshqarish va valyuta zaxiralari yetarliligini ta'minlash mexanizmlarini ochib bering.
63. Raqobat muhitini rivojlantirishda antimonopol siyosatning rolini tushuntiring.
64. Davlat boshqaruvini raqamli transformatsiya qilish strategiyasini yoriting.
65. Iqtisodiy siyosatda ochiq ma'lumotlar (open data)dan foydalanishning afzalliklarini bayon qiling.
66. Risklarni tahlil qilish va prognozlashda sun'iy intellektdan foydalanish istiqbollarni ochib bering.
67. Raqamli iqtisodiyotda kiberxavfsizlik va ma'lumotlarni himoya qilish siyosati ustuvor yo'nalishlarini tavsiflang.
68. Startup-ekotizimlar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat choralarini yoriting.
69. Davlat nazorati tizimida riskka asoslangan yondashuvning mohiyatini tushuntiring.
70. Korrupsiyaga qarshi kurashda manfaatlar to'qnashuvining oldini olish mexanizmlarini bayon qiling.
71. Uzoq muddatli qarorlar qabul qilishda SWOT va PESTEL strategik tahlil usullarini ochib bering.
72. Tashqi savdoni tartibga solish va mintaqaviy integratsiya jarayonlarida davlatning rolini tavsiflang.
73. Davlatning iqtisodiyotdagi ishtirok modellarini (anglosakson, yevropa, osiyo) taqqoslang.
74. "O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish vazifalarini yoriting.

## **TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **I. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNLARI**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi..Mazkur yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovozi berish orqali qabul qilingan.

2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. 30.04.2023 (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.10.2022-y., 02/22/798/0972-son; 12.04.2023-y., 03/23/829/0208-son)

3. O'zbekiston Respublikasining "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahrir), 2019-yil 22-oktyabr, O'RQ-573-son

4. O'zbekiston Respublikasining "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahrir), 2000-yil 26-may.

5. O'zbekiston Respublikasining "Markaziy banki to'g'risida" (yangi tahriri), 2019-yil 11-noyabr, O'RQ-582-son

6. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahrir). 2016-yil 13-aprel, O'RQ-404-son

7. O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahrir). 25.02.2021-yildagi O'RQ-677-son

8. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi (yangi tahriri) . (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.12.2019-y., 02/19/SK/4256-son; 11.03.2020-y., 03/20/607/0279-son, 05.10.2020-y., 03/20/640/1348-son; 09.11.2020-y., 03/20/646/1488-son; 02.12.2020-y., 03/20/652/1581-son; 04.12.2020-y., 03/20/653/1592-son; 31.12.2020-y., 03/20/659/1681-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 29.04.2021-y., 03/21/689/0395-son; 17.08.2021-y., 03/21/708/0799-son; 15.09.2021-y., 03/21/714/0874-son, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son; 15.10.2021-y., 03/21/722/0960-son, 26.10.2021-y., 03/21/725/0995-son, 30.10.2021-y., 03/21/726/1001-son, 30.12.2021-y., 03/21/741/1219-son; 10.02.2022-y., 03/22/752/0113-son; 12.03.2022-y., 03/22/758/0207-son; 14.03.2022-y., 03/22/759/0213-son, 06.05.2022-y., 03/22/767/0386-son, 18.05.2022-y., 03/22/770/0424-son, 01.06.2022-y., 03/22/773/0461-son, 07.06.2022-y., 03/22/775/0477-son, 13.07.2022-y., 03/22/783/0620-son; 27.07.2022-y., 03/22/785/0679-son; 31.12.2022-y., 03/22/812/1145-son)

9. 30.12.2022-yildagi O'RQ-813-son "2023-YIL UCHUN O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT BYUDJETI TO'G'RISIDA" O'zbekiston Respublikasining Qonuni.

10. O'zbekiston Respublikasining " Banklar va bank faoliyati to'g'risida (yangi tahriri) " gi Qonuni, 2019-yil 5-noyabr, O'RQ-580-son

11. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida" O'RQ-537-son Qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.05.2019-y., 03/19/537/3113-son

### **II. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI FARMONLARI VA QARORLARI, VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORLARI**

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to'g'risida"gi PF-6003-son Farmoni.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-maydagi "O'zbekiston Respublikasi investitsiya dasturini shakllantirish va amalga oshirishning sifat jihatidan yangi tizimiga

o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5717-son Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.05.2019-y., 06/19/5717/3132-son

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-iyuldagi "Mikromoliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4400-son Qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.07.2019-y., 07/19/4400/3468-son.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Kapital bozorini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-4127-son Qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.01.2019-y., 07/19/4127/2535-son.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4412-son Qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.08.2019-y., 07/19/4412/3512-son.

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-avgustdagi "Byudjet ma'lumotlarining ochiqqligini va byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3917-son Qarori.

19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5495-son Farmoni.

20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3832-son Qarori.

21. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5468-son Farmoni.

22. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni.

23. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-martdagi "Moliya organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2847-son Qarori.

24. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 23-avgustdagi "Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat va korporativ xaridlarini amalga oshirishning zamonaviy shakl va uslublarini yanada joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3237-son Qarori.

25. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-sentyabrdagi "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5177-son Farmoni.

26. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-sentyabrdagi "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3270-son Qarori.

27. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentyabrdagi "Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3272-son Qarori.

28. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-oktyabrdagi "Kafolat sug'urta kompaniyasi" aksiyadorlik jamiyati faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3317-son Qarori.

29. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasini yanada rivojlantirish va faoliyati samaradorligini oshirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3326-son Qarori.

30. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 5-oktyabrdagi "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiyl mulkni har tomonlama himoya qilishga va

ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-4848-sonli Farmoni.

31. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 26-oktyabrdagi “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-4853-sonli Farmoni.

32. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 15-maydagi “Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta‘minlash, ularni jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4725-sonli Farmoni.

33. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 25-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2013-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi 1887-sonli Qarori.

34. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 25-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2014-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi 2099-sonli Qarori.

